

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI
“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“INSON IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYATNING SUBYEKTI
SIFATIDA” MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining ____ -
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ ____ ” ____ 2013 yil

Kafedra mudiri _____
X.Shodiyev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs bitiruvchisi
Qurbanbayeva Ra‘no

Ilmiy raxbar: f.f.d.professor.
To‘ychiyeva S.S. _____

Toshkent-2014

KIRISH.....

I. BOB. INSON IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYAT SUBYEKTI VA UNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFLARI

1.1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat funksiyalarining nazariy asoslari.....

1.2. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.....

II. BOB. INSON MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALAR SUBYEKTI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

2.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlarning madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari.....

2.2. Madaniy-ma'rifiy ishlar orqali inson faoliyatini optimallashtirish.....

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilovalar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Inson - kishi, uning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi. talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab, oliy mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti, hayot gultojidir. Insonning bebaholigi-uning aql-idrok va tafakkurga egaligida. U aql-idrok sohibi bo'lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu-tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Manaviyati Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Albatta, «ma'naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Umuman, o'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma'rifatli inson o'zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e'tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif va tavsiflar berishi tabiiy. Shuning uchun ham bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir-biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o'rinlidir"¹.

Insonning ichki ma'naviy dunyosi, uning qiziqishlari, e'tiqodi, tushunchalari ming yillar mobaynida shakllandi, ongi mustahkamlanib bordi. Shunga ko'ra, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi tub o'zgarishlar mahsuli bo'lgan inson ongidagi o'zgarishlar, birmuncha murakkabroq kechib, ma'lum vaqt ichida yuz beradi. Obyektiv olamda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan hodisalar, ularning umumlashmalari asosida inson tushunchalari, ongi, fikri shakllanadi. Inson ruhiy dunyosini o'zgartirish yo'lida bo'lgan zo'rliklar, tazyiqlar, so'zsiz ravishda ichki, yashirin qarama -qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch –T., Ma'naviyat, 2008. –B.19

Insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarning imkoniyati katta. O'quv yurtlari asosan, yoshlarga bilim, ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish bilan bir qatorda ularni ma'naviy, ahloqiy, ruhiy jihatlaridan oziqlantirib, tarbiya beradi. Demak, insonlar ma'naviy barqarorligini yo'lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb etishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki insonlarning bo'sh vaqtida ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma'rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimga bog'liqligidir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har bir insonni o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi uchun maskan hisoblanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq ho'jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, san'atning gurullab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga jamiyatda bilim taraqqatish, odamlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, ularning ma'naviy moddiy hordiq chiqarishlarini yuksak darajada uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Madaniyatga faoliyat sifatida yondoshuv quyidagi qoidalarda o'z ifodasini topadi:

- «Madaniyat inson tomonidan o'z-o'zini va borliqni qayta qurishdan iborat faoliyat demakdir».

- «Madaniyat insonning mohiyatini ifodalovchi faoliyat».

Texnologik yondashish quyidagi qoidalarda ifoda etiladi: «Madaniyat kishilik tajribalarini saqlovchi, rivojlantiruvchi va avlodlarga yetkazuvchi vositadir», «Madaniyat faoliyatni amalga oshirish uslubidir».

Madaniyat tushunchasini gumanistik va mazmun jihatdan «Madaniyat insonning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari rivojlanishi qonuniyatlari ifodasidir». «Madaniyat insonning tabiat va jamiyat bilan o'ziga xos uyg'unlashuvidir»².

Hozirgi paytda insonlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali tarzda uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni talab etadi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

«Bo'sh vaqt - ijtimoiy boylik» deyishadi. U inson qobiliyatini takomillashtirishi, bilim olishi, ma'naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish-bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan inson toliqqanda biroz hordiq chiqarish, uchinchidan, sog'liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir. Shunday ekan, madaniy xordiq chiqarish har bir davrda ham ahamiyatga ega bo'lgan va bugungi kunda ham dolzarblik kasb etmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari topish va yanada mukamallashtirish borasida M.Bekmurodov, B. Begmatov, A.Jabborov, A.Ashirov, Sh.Ahmadjonovlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida yoritib berganlar.

Tadqiqotning maqsadi: Inson ijtimoiy-madaniy faoliyatning subyektini ekanligini chuqur tahlil etish bilan birga madaniyat muassasalarida insonlarning madaniy-xordiqiy tadbirlari samaradorligini yanada oshirish va insonlarning bo'sh

²Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003. 77 -b

vaqtlarini mazmunli tashkil etishlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish, uni amaliyotda joriy qilish hamda ularning faoliyatlarini takomillashtirishga erishish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Milliy mentalitet hamda turmush tarzi o'ziga xosliklarining madaniyat va san'at rivojiga ta'sirini o'rganib chiqish.
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatni mavjudni o'rganish va insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga ko'maklashadigan tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Insonlarni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb etish hamda to'garaklarning shaxsni shakllantirishga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti: inson ijtimoiy-madaniy faoliyatning subyekti ekanligini o'rganish uchun mavjud madaniyat muassasalari, madaniyat va aholi dam olish markazlari orqali o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning predmeti: Madaniyat muassasalari faoliyati insonlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, uslubi va shakllari.

Tadqiqotning metodologik asosi: ushbu mavzuni tahlil qilishda va uni yoritishda sharq va g'arb mutafakkirlarining ilm-fan, madaniyat va san'atga oid qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimov asarlaridagi madaniyat va san'atga oid fikrlar, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muammolari, ta'lim muammolari, xalq ta'limi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, madaniyat muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdagi uslubiy kursatmalari, insonlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga doir ta'lim va tarbiyaga oid risolalar, ilmiy metodik jurnal va adabiyotlaridan, ushbu sohada mamlakatimizda ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarning tahliliy ma'lumotlari o'z aksini topgan.

Tadqiqotning metodlari:

- ijtimoiy-madaniy faoliyatga oid ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish;
- inson ijtimoiy-madaniy faoliyatning subyekti ekanligini tahlil qilishda davra suhbatlari uyushtirish;

- ijtimoiy so‘rovnoma va testlardan olingan ma’lumotlarni umumlashtirish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: ijtimoiy-madaniy faoliyatning o‘ziga xosligining madaniyat va san’at rivojiga ta’sir etish mexanizmlarini aniqlash, g‘arbdan kirib kelayotgan ayrim “madaniyat”lardan insonlarni himoya qilish uchun ularning bo’sh vaqtlarini foydali mashg‘ulotlar bilan samarali tashkil etishda ko‘rinadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati: Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil inson madaniyatining o‘ziga xosliklari, bunda madaniyat muassasalarining o‘rni va psixologik xususiyatlarining o‘rganilishi madaniyatshunoslik va san’atshunoslik sohalariga nazariy hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning nazariy ahamiyati o‘tkazilgan ilmiy tahlillar va olingan xulosalar “madaniy tadbirlarni tashkil etish”, “madaniyat va san’at menejmenti”, “shaxslararo munosabatlar psixologiyasi”, “tarbiya psixologiyasi” kabi sohalarini yanada boyitishga xizmat qilishida ham namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan respublikadagi san’at va madaniyat kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga o‘quv-tarbiya jarayonida insonning bo’sh vaqtini samarali tashkil etish tushunchalarini takomillashtirishda qo‘l kelishi. Tadqiqot natijasida chiqarilgan nazariy xulosalar va sohaning rivojlanish tamoyillari xususidagi taklif-mulohazalar madaniyat muassasalari faoliyatini o‘rganish bo‘yicha bundan keyin olib boriladigan ilmiy izlanishlarda manba vazifasini o‘tashi, shuningdek, madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish sohasida talabalar uchun o‘zlarining madaniyat borasidagi bilimini yanada oshirishlari uchun nazariy-amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan.

BMIning strukturaviy tuzilishi: kirish, asosiy qism (2-bob va 4 punkt), xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

I. BOB. INSON IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYAT SUBYEKTI VA UNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFLARI

1.1. Ijtimoiy madaniy faoliyat funksiyalarining nazariy asoslari.

Insoniyat ongi, tafakkur tarzining rivojlanishi natijasida odamlar orasida bir-biri bilan uyushqoqligi murakkab strukturasi tarkib topa bordi qabilaviy birlikdan davlatlar darajasidagi birlik, millat darajasidagi birlik tarkib topdi.

O'troq turmush tarzi ko'chmanchilikdan iborat darbadar hayotga barham berildi. Odamlar o'z millatiga, davlatiga, diniga aloqadorlik, shuningdek, o'z kiziqishlari, ideallariga mansublik asosida birlasha boshladilar.

Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyatning evolyusion jihatdan yuqori bosqichi shakllana boshladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z shakllanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi.

Zardushtiylik davrida olovga, quyoshga, nurga sig'inish orqali odamlarni ezgulik, issiqlik, nur atrofida birlashtirishga harakat qilingan. Buning uchun odamlarni yaxshilik, ezgulik xudosi Mitra obrazi orqali birlashtirishga intilish harakatiga amal qilingan;

Islom dinini yoyish uchun aholini ommaviy tarzda qo'rquv omili orqali itoatga undalgan. Bu davrda odamlarni guruhiiy ma'rifatga chorlash harakati bo'lgan. Shu tariqa:

- a) ilk ma'rifiy-maishiy muassasalar tashkil etilgan (xonaqohlar)
- b) hordiq muassasalari shakllanib, rivojlangan (choyxonalar, guzarlar, musofirxonalar)
- v) tijorat bilan uyg'unlashgan muassasalar faoliyat yuritgan (karvonsaroylar, robotlar)
- g) diniy-ma'rifiy muassasalar ochilgan (masjidlar)
- d) oliy diniy va dunyoviy muassasalar rivoj topgan (madrasalar).

“Inson ma’naviy olamining yuksalishi bilan bog‘liq turli holatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash - odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. O‘ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir”³ –degan fikrlarni bildiradi Prezident Islom Karimov.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yuqori bosqichi odamlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo‘shimcha kasb-hunarlarni o‘rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to‘garaklarda (faoliyat yuritish singari mashg‘ulliklar tarzida amal qila boshladi.)

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an’ana va urf-odatlarini o‘tkazish, diniy marosimlar, tabiat va rasmiy bayramlarni keng nishonlash shaklida ham namoyon bo‘la bordi. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat odamlar hayotida mustaxkam joylashganligining asosiy omillari oydinlashdi.

Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- odamlarning o‘zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta’minlash uchun ularni biror bir mashg‘ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;

- san’at turlaridan zavq olish, go‘zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma’naviy ehtiyoj;

- yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan ideallarga yo‘naltiruvchi muqim raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;

- yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun

³ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.,Ma’naviyat, 2008. –B.25

ularga qo‘shimcha bilim va hunar o‘rgatish zarurati;
Jamiyatdagi an‘ana, marosim, bayram, urf-odatlarining o‘tkazilishini ma’lum tartibotlar asosida muvofiqlashtirib borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir⁴.

Sho‘rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyat funksiyalari muayyan darajada o‘zgartirilib, kommunistik mafko‘raga ko‘ra moslashtirildi. Uning nomi madaniy-oqartuv ishi deb atala boshlandi. Madaniy-oqartuv ishi tarkibiga kutubxonalar, klublar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog‘lari kiritildi.

Xalqning ming yillar mobaynidagi an‘anaviy ijtimoiy-madaniy muassasalari hisoblangan choyxonalar, guzarlar, bog‘lar, nodavlat tashkilotlar, diniy muassasalar, shuningdek, milliy va ijtimoiy uyushqoq shakllari bo‘lgan odamlarning ko‘ngilli uyushmalari, to‘ylar, marosim va an‘analar, urf-odatlar bu tarkibdan chetda qoldi.

Zeroki Prezidentimiz aytganlaridek “ Barchamizga yaxshi ayonki, har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, bu dunyoga baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak orzuga yetishning sharti va garovi bo‘lgan omillar ko‘p. Lekin ular orasida hayotimizga ma’no-mazmun beradigan, uni yanada yorug‘ va fayzli qiladigan bir omil borki, u ham bo‘lsa, odamning o‘z uyi, o‘z yurtini har tomon-lama go‘zal va obod qilib, shundan o‘zi mamnun bo‘lib, rozi bo‘lib yashashida yaqqol namoyon bo‘ladi

Bir makon va zamon muhitida xalq turmush tarzi o‘zgacha, sovetlarning madaniy-oqartuv ishlari o‘zgacha tarzda amal qila boshladi.

Madaniy-oqartuv ishida ommaviylik tamoyiliga amal qilinmadi. Shuningdek, bu faoliyat odamlarning milliy ruhiga begona ish va mashg‘ulotlar tarzida amal qilib keldi. .

⁴ Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma’naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003. – B.96

Shunga qaramay, sho'rolarning klub va kutubxona muassasalari partiya qarorlari hamda mustabid hokimiyat yo'riqnomalarini aholining eng quyi bo'g'inlarigacha yetkazish, ommani siyosiy-mafkuraviy ta'sir doirasida mustahkam ushlab turishda muayyan rol o'ynaydi.

Birgina misol: 3-5 ming kishilik xududda faoliyat yurituvchi qishloq klubida agar 5-7 nafar havaskorlik to'garaklari faoliyat yuritsa, bu klub «yaxshi» baxolanar, agar 1-2 nafar to'garak bo'lsa, bu klubning ishi qoniqarsiz deb topilar edi. Klublar bir yilda 3 nafar sho'ro bayramlarini hamda 3-4 to'garakda qatnashuvchi 20-25 kishi bilan mashg'ulotlar o'tkazib turuvchi joy edi xolos.

Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi:

- odamlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlari asosidagi takliflarni shakllantirish;
- aholini turli ijtimoiy jamolarga uyushtirish;
- aholi dunyoqarashini maqsadli boyitish;
- aholi iste'dodlarini aniqash va tarbiyalash;
- milliy qadriyatlarini tiklashga xizmat qilish bo'ldi.

Istiqloldan so'ng ijtimoiy-madaniy faoliyat tubdan o'zgardi. Bu sohada tub tarkibiy o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar natijasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy ish funksiyalari tarkib toptirildi.

Ular quyidagilar:

- O'zbekistonning mustaqil rivojlanishini ta'minlovchi besh asosiy tamoyilning hayotdan mustahkam o'rin olishi;
- Aholi turli qatlamlarida mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayoniga bevosita daxldorlikni shakllantirish;
- Hech kimdan kam bo'lmagan shaxs, jamiyat va davlatni shakllantirishga faol ko'maklashish;
- Jamiyatda hushyorlik, sezgirlik, ogohlikni ta'minlashda aholining faol ishtirokini ta'minlash;

- Odamlarni sho‘rolar davridagi kabi noiloj emas, balki chin dildan yakdil birlashishlariga xizmat qilish;

- Aholini bunyodkorlik faoliyatlariga yo‘naltirish;

- Aholining madaniyat, san‘at, texnika, xunarmandchilik va sport mashg‘ulotlari, klublari, to‘garaklariga keng jalb etilishiga erishish;

- Odamlarda milliy an‘analar, urf-odatlar, qadimiy bayramlarimizga ehtirom fazilatlarini tarkib toptirish orqali milliy o‘zlikni anglashga ko‘maklashish;

- Aholi turli tabaqalari vakillarida bayramlar, ideallarga sadoqat, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish;

- Odamlarda badiiy, estetik didning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qilish;

- Aholiga oila muqaddas qadriyat ekanligi targ‘ib qilish;

- «Maktab-oila-mahalla» hamkorligini ta‘minlash orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga erishish;

- Turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, partiyalar, milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga quyish;

- Zamona qaxramoni obrazini hududdagi real shaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ‘ib etish;

- Har bir insonga xos bo‘lgan iste‘dodni aniqlash yo‘lida doimiy faoliyat olib borish va ularning hududiy intellektual salohiyat xaritasini ishlab chiqish;

- Jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarni reklama qilishda yoshlarda faol bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish;

-Hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlari bo‘yicha asoslangan amaliy prognozlar yaratish ishlarini olib borish;

Istiqlol yillarida shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning uzviy bo‘g‘iniga aylandi¹.

Har qanday fan, o‘quv predmeti, umuman, bilimning barcha sohalari ilmiy asos yoki nazariyasiz rivojlana olmaydi.

¹Bekmurodov M. Demokratik jamiyatda oila Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent.: 2003. №4 (24). 30-6.

NAZARIYA - hayot hodisalari, inson tajribasi, amaliy faoliyat haqidagi bilimlarni yig'adi, umumlashtiradi, mantiqiy bir sistemaga soladi.

Nazariya - ma'lum bilimlar soxasidagi inson tafakkurining obyektiv qonunlarini aks ettiradi, mantiqiy fikrlash yo'li bilan ishlab chiqargan bilim - qoidalar asosi va majmuasini vujudga keltiradi. Nazariyaning asosiy vazifalaridan biri insonlar bilimini boyitib va chuqurlashtirib borishidir.

Hozirgi davrda «Madaniy - ma'rifiy faoliyat» asoslari fanini shakllantiradigan asoslar, ya'ni uning mohiyati, hayotda tutgan o'rni, vazifalari, o'ziga asos xususiyatlari va ularni tashkil qilish qonun - qoidalari haqidagi bilimlar mavjud.

O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridayoq ijtimoiy hayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xalqning badiiy havaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi.

«Madaniy - ma'rifiy faoliyat», avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat va aholi dam olish markazi, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasalar bu g'oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi xisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Ularni har tomonlama rivojlantirish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat, asosan insonlarning ishdan bo'sh vaqtlarida olib boriladi, insonlarga asosiy ishdan tashqari har xil mazmundagi va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat insonlarning hordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi.

Madaniy - ma'rifiy faoliyat - aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy

saviyasini oshirish, bilimni o'qitish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'z obyekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Madaniy - ma'rifiy faoliyat quyidagilardan iborat:

1. Tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.
2. Xalq havaskorlik ijodini o'qitish.
3. Insonlarning dam olishini tashkil qilish.

Bu ish faoliyatlari madaniy-ma'rifiy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayohat va ekskursiya kabilar kiradi⁵.

Ko'rinib turibdiki, madaniy-ma'rifiy faoliyatining ish shakllari xilma xil va ko'pdir. Ular haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga madaniy - ma'rifiy ish shakllariga qatnashadigan insonlarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilarga bo'linadi: yakka, guruhli va ommaviy shakllar.

1. Yakka shakllar-mutaxassis va tinglovchi o'rtasidagi konsultatsiya, yakka suhbat, ommaviy mashg'ulotlardan tashkil topadi.
2. Guruxli shakllar - taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya'ni munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, havaskorlik jamoalari mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.
3. Ommaviy shakllar - soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo'ljallangan ma'ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar madaniy-ma'rifiy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

2-tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta'sirchan vositalardan va usullardan

⁵ Jabborov . O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003.

foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada ham ish shakllari 3 guruhga bo'linadi: monologik, diologik va ko'p tarmoqli shakllar.

1. Monologik shakllar - bu notiqning og'zaki, «jonli» so'zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma'ruza, doklad, axborot va boshqalar.

2. Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suhbat, fikr almashishdan iborat bo'lib, unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. Ko'p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, og'zaki jurnal, mavzuli kechalar va boshqalar.

Madaniy - ma'rifiy faoliyatning uch asosiy bo'g'ini mavjud bo'lib, bular: madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan iborat.

Madaniyat arabcha «madina» (shahar kentlar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar insonlar hayotini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik bu ko'chmanchi holda cho'l sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharlarda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanib jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuini biror ijtimoiy gurux yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritilgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni hamda turmushning ma'rifatli kishi extiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Madaniyat ikki turga bo'linadi: moddiy va ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha soxalari hamda uning samaralari-mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqlan va ma'nan yaratuvchanlik sohalari-bilim, aloqa,

ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, din va shu kabilar kiradi.

Ma'naviyatga Prizedetimiz shunday tarif bergan edi, " ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, meningcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz."

Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalq madaniyatining asosini shu millat yaratgan bo'lsada, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta.

Madaniyat - umuminsoniy xodisa, lekin SHo'ro mafkurachilari aytib kelganidek sinfiy hodisa emas. Madaniyat barchaga barobardir.

Har bir jamiyat va davr o'z madaniyat ko'rinishiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati o'zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat yo'q bo'lib ketmaydi, madaniy meros va an'analar saqlanadi.

O'tmish davrdan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmuiga madaniy meros deyiladi. Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini yangitdan yaratmaydi, balki ajdodlar tamonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi.

SHo'rolar davrida madaniy merosga noto'g'ri munosabatda bo'lindi: ya'ni ular «boyu zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi-proletar madaniyatni yaratamiz» degan shior ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirildi, saroy, masjid va madrasalar buzib tashlandi, nodir asarlar yoqildi.

Shu bilan birga har bir jamiyat o'tmish madaniy merosini qanday bo'lsa,

shundayligicha, ko‘r-ko‘rona qabul qilib olmaydi, albatta. Madaniy merosning o‘z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlarga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi¹. Chunki o‘tmishdan qolgan barcha narsalar bir xil qadriyatga ega bo‘lmaydi. Masalan, sho‘rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targ‘ib etgan endilikda o‘z umrini yashab bo‘lgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati yo‘q. To‘g‘ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo‘yish mumkin, xolos.

Demak, madaniy merosning qadri abadul - abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma‘naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta‘minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xos. Ma‘naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish insonga xos fazilatdir.

Ma‘naviyat - odamning ruhiy va aqliy olamligini majmuidir.

Ma‘naviyat - jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyatiga, idrokini mujjassamlashtiruvchi tushuncha. Ma‘naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi inson va jamiyat hayoti ma‘lum yo‘nalishining bosh omilidir.

Ma‘naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi, va rivojlanadi, ma‘naviyat qashshoqlansa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

Shuning uchun mustaqillik yillarida ma‘naviyatga kuchli e‘tibor berilayotganligining sababi ham shunda. Boy ma‘naviyatsiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi.

Ma‘naviyat keng tushuncha bo‘lib, ma‘rifat, madaniyat tushunchalarini ham o‘ziga qamrab oladi.

Har bir jamiyatning ma‘naviyat darajasi uning iste‘dod egalarini, umuman, iqtidorli shaxslarni qadrlash, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, kamol topishlariga yetarli

¹www.google.uz

shart - sharoitlarni ta'minlab berishi bilan ham belgilanadi. Rivojlangan, ma'naviyatli jamiyatda iste'dod egalari millatning yuzi, g'ururi va kelajagi deb qaraladi. Bizning jamiyatimiz ham shu yo'ldan bormoqda.

Ona zaminimizda azaldan iste'dod egalarini munosib qadrlashga hamisha e'tibor berib kelingan. Bir tarixiy misol, buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy buyuk asari «Hamsa» ni yozib tugatgach, Sulton Husayn Boyqaro ulug' bobomizni saroyga taklif qiladi, peshvoz chiqib, karnay-surnaylar sadosi ostida zo'r tantanalar bilan kutib oladi, arkoni davlat, amirlar, vazirlar, ulamo va fuzalo hozirligida shoirga shohona sarupolarni o'z qo'li bilan kiydiradi, kumush bilan ziynatlangan egar-jabduqli oq arg'umoqqa mindiradi, A.Navoiy mingan ot jilovini Husayn Boyqaroning o'zi tutganicha Xuroson mamlakatining poytaxti bo'lmish Hirotning bosh ko'chalarini aylantirib chiqadi. Xaloyiq ularni bab-barobar olqishlaydi. Biri buyuk asar yaratgani uchun, ikkinchisi shu asar yaratuvchining qadriga yetgani uchun shunday olqishlarga sazovor bo'ladilar. Bu buyuk asarning shohona taqdirlanishi edi.

Biroq mustamlakachilik, chorizm zulmi va sovet imperiyasi yillarida yurtimizda iste'dod egalari to'la bo'y ko'rsatishlariga e'tibor berilmadi. Chunki bundan kommunistik tuzum manfaaddor emasdi, u yirik iste'dod egalarining paydo bo'lishi xalqning milliy ruhi va g'ururini uyg'otib yuborishidan cho'chir edi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach har sohada bo'lgani kabi iste'dod egalariga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik qilish kun tartibidagi birinchi masala sifatida qo'yildi. Respublika Prezidentining bu boradagi qator farmonlari, xukumat qarorlari fikrlarimizni tasdiqlaydi. Buni jamiyatimizning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri deyish mumkin.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi - bilish, tanish, bilimdir. Bu so'zning ko'plik shakli maorifdir.

Ma'rifat-tabiati, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar,

ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani-bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, deganidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif asosan, umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oldi. Ma'rifat tushunchasi esa kengroq bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va soxalarini o'ziga qamrab oladi. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o'tishi, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli siymolari ma'rifatparvarlardir.

Har bir davrning o'z ma'rifatparvarlari bo'lgan. Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Zavqiy kabilar o'z asarlarida xalqni qoloqlikdan qutqarish yo'lini ma'rifatda ko'rdilar. Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar xalqni milliy uyg'onishga da'vat etdilar.

Madaniy - ma'rifiy muassasalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Kutubxona, muzey, madaniyat va aholi dam olish markazi, istirohat bog'i, madaniy dam olish maskanlari.

Kutubxonalar o'zlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o'quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo'linadi. Ommaviy kutubxonalar aholining turli sohaga doir kitoblarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi tizimida quyidagi kutubxonalar mavjud:

1. Respublika kutubxonasi.
2. Viloyatlar kutubxonalari. Ular respublikadagi, viloyatdagi, shahar, tuman, qishloq kutubxonalariga asosan uslubiy yordam beradilar.
3. Shahar, tuman kutubxonalari quyidagi turlarga bo'linadi.
 - Qishloq kutubxonalari.
 - Bolalar kutubxonalari.

- Madaniyat va aholi dam olish markazi qoshidagi klub-kutubxonalar.

O‘quv yurtlari kutubxonalari. Ular fondlariga asosan umumta’lim maktablari, kasb-xunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari, malaka oshirish kurslari va institutlarning kutubxonalariga bo‘linadi.

Ilmiy-texnika va turli maxsus kutubxonalar. Bu kutubxonalarning kitob fondlari ishlab chiqarish malakalarini oshirishda, xalq xo‘jaligi yo‘nalishidagi madaniyatning asosiy vazifalarini hal qilishda turli sohada xodimlariga yordam beruvchi adabiyotlardan tashkil topadi. Bularga korxona, ilmiy muassasalar, nashriyotlar, konstruktorlik tashkilotlari, teatr, muzika, sport tashkilotlarining kutubxonalari kiradi.

Ilmiy kutubxonalar. Ular o‘z ishlarini fan, madaniyat, ishlab chiqarish talabalarga muvofiq tashkil qiladi, mutaxassislarga ilmiy malakalarini oshirishda ko‘maklashadi.

Muzeylarlarning vazifasi tarixiy xujjatlarni, moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorliklarini, san’at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to‘plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko‘rgazmalarga qo‘yishdan iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini ham olib boradilar.

Muzeylar quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi:

1. Tarix muzeylari.
1. Xotira yodgorlik muzeylari.
2. O‘lkashunoslik muzeylari.
3. San’atshunoslik muzeylari.
4. Tabiiy-ilmiy muzeylar¹.

1. Tarix muzeylarida Vatanimiz tarixini aks ettiruvchi xujjatlar, yodgorliklar, moddiy va ma’naviy madaniyat esdaliklari to‘planadi.

2. Xotira-yodgorlik muzeylari Respublikamizning mashhur arboblari; shuhrat qozongan yozuvchi va rassomlar, kompozitor, olimlar, san’atkorlar xotirasiga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bularga G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oybek uy-muzeylari, O‘rol

¹www.google.uz

Tansiqboyev, M.Ashrafiy uy - muzeylari, Tamaraxonim, M.Turg'unboyeva va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

3. O'lkashunoslik muzeylari. Viloyatlar va tumanlarning tabiiy sharoiti, tarixi, madaniyati va turmushini harakterluvchi xujjatlar va yodgorliklarni to'playdi.

4. Tabiiy-ilmiy muzeylarga tabiatshunoslik, biologiya, geografiya muzeylari kiradi.

5. San'atshunoslik muzeylari. Ularga tasviriy san'at, amaliy san'at, arxitektura, musiqa, teatr san'ati yutuqlarini ko'rsatuvchi muzeylar kiradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazi, saroylari ikki turga bo'linadi:

I. Madaniyat Vazirligi tasarrufidagi madaniyat va aholi dam olish markazi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Shahar madaniyat va aholi dam olish markazi - davlat tasarrufidagi madaniyat va aholi dam olish markazi bo'lib, shahar aholisiga xizmat ko'rsatadi.

2. Tuman madaniyat va aholi dam olish markazi.

3. Qishloq madaniyat va aholi dam olish markazi - o'zlari yashaydigan qishloq aholisiga madaniy xizmat ko'rsatadi¹.

II. Kasaba qo'mitasi tarmog'idagi madaniyat muassasalari. Ularga korxona qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar, dam olish uylarining klublari kiradi. Ular o'z tashkilotlarining ixtiyorida bo'ladi.

Madaniyat va istirohat bog'lari - ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o'tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qo'yiladi, siyosiy va ilmiy ma'ruzalar tashkil qilinadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari madaniyat va istiroxat bog'larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar yurtdoshlarimizning estetik didlarini o'stirishga yordam beradi

Teatrlar - sahna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo'linadi:

A) opera va balet teatrlari;

¹Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. - T.: Cho'lpon 1995.

- B) drama;
- V) muzikali komediya teatrlari;
- G) yosh tomoshabinlar teatrlari;
- D) qo'g'irchoq teatri
- YE) miniatyura teatrlari
- J) estrada teatrlari

Konsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari
- V) mustaqil musiqa jamoalari.

Kinoteatrlar - kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jihozlangan maskan sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Shuningdek, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, matbuot); Ta'lim tarbiya muasasalari; Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, bastakorlar, teatr arboblari) ham shug'ulanadilar.

1.2. Madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatida insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o'ynaydi.

Insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalarayniqsa, madaniyatvaaholidamoilshmarkazlari, mahallaguzarlari, sportinshoatlari, kutubxonalarningimkoniyatikatta. O'quvyurtlariasosan, bolalargabilim, ta'limberishbilanshug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalarularningbo'shvaqtinimaroqlio'tkazishbilanbirqatordaularnima'naviy, ahloqiy, ruhiyjihatlaridanoziqlantiribtarbiyaberadi. Demak, insonlarma'naviybarqarorliginiyo'lgasolish, ularningshaxssifatidayetuklikkasbetishikelajakdaulkanvazifalarniamalgaoshirishidama daniy-ma'rifiy muassasarahbarlari, xodimlarivamurabbiylarningrolibeqiyosdir. Chunkiinsonlarningbo'shvaqtidaixtiyoriytarzda, o'zqiziqishlari, iste'dodivaqobiliyatlarigayarashaijtimoiyfoydalifaoliyatbilanshug'ullanishlarinitashkil etishvauniuyushtirishmadaniy-ma'rifiyxodimlarningmurabbiylikmahorativabilimgabog'liqligidir.

Bu ishlarda murabbiylikdan yana bir qator malaka va ko'nikmalarni ham talab qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar siyosiy, tarbiyaviy va madaniy ommaviy ishlar o'tkaziladigan havfsizliklarni chiqarish va konsertlar, kinofilimlar namoyish etiladigan maskanlar hisoblanadi. Umuman madaniy-ma'rifiy muassasalar muayyan hududdagi aholining boshini qovushtirishga jamiyat uchun zarur axborotni bevosita yetkazadigan, hatto keng ko'lamda axloqiy tarbiya olib borish mumkin bo'lmagan joydir. Mustaqil rivojlanish yo'lidagi izlanishlarga kirishgan vatanimizda milliy tiklanish va milliy ozodlik taraqqiy etish tarzi madaniy-ma'rifiy muassasalar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni bo'lakchadir. Chin ma'noda jamiyat a'zolarining har tomonlama yetuklikka erishishini hoxlovchi jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Bu kabi jarayonlarni olg'a surish, fuqarolar saviyasini nisbatan jamiyat ehtiyojlarining kuchaytirish insonlarning muayyan maqsad asosida kuchaytirish yaqinlashtirish, ularni madaniyat va aholi dam olish markazlariga birlashtirish.

Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va ehtiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z oldiga qo'ygan vazifasidir⁶. Jamiyat o'z a'zolarining tarbiyalash uchun beriladigan barcha qadriyatlarni o'zi belgilaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi pedagog jarayonlar insonlarni, ayniqsa yosh avlodni muayyan qadriyatlar bilan qurollantirib, jamiyat uchun belgilangan maqsadlarda tarbiyalash bilan bog'liq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning ijtimoiy, madaniy -tarbiyaviy muassasa sifatidagi roli va qadri behad kattadir.

Bugungi milliy respublikamizdagi rahbarlar yosh avlodni yangicha ijtimoiy ong bilan jamiyatning hozirgi talablariga mos o'zi yashayotgan jamiyat muhitining zaruriyatlariga javob beradigan, ya'ni vatanparvarlik ruhida himoyaga yetkazishni talab qiladi. Bu talabni amalga oshirishda viloyatlar markazlaridagi yagona teatr, muzey, kutubxonalar faoliyati kamlik qiladi.

Tumanlar markazlarida saqlanib qolgan madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlarida istirohat bog'larida ommaga ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazish taqazo qiladilar. Respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy islohatlar bo'lib turgan bir paytda, xalq uchun juda qimmat bo'lgan qadriyatlarni saqlab qolib, ularning o'zbek xalq mustaqilligiga xizmat qilishiga katta e'tibor berildi.

⁶Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. - T.: Cho'lpon 1995.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Ijtimoiy madaniy ta'lim -tarbiya muassasalarining va yo'nalishlarini belgilaganda respublikamizdagi hozirgi taraqqiyot jarayoni va undan kelib chiqadigan ehtiyojlarni xususiyatlari hisobga olinmoqda.

Davlat siyosatidagi mulk turlarining erkin bo'lishi madaniyat va aholi dam olish markazlarining xususiy turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkoniyat bermoqda. Bunday muassasalardagi ish mazmuni komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmog'i muhimdir. Bizning davrimizda milliy mafkurani barqaror etish eng asosiy maqsadga aylandi. Madaniy -ma'rifiy muassasalar mahalliy xalqning milliy dunyoqarashi va ruhiyatiga, mentalitetiga, madaniyatiga mos, mahalliy sharoitiga yaqinlashtirilgan holda ish yuritmoqda. Madaniy muassasaning xizmat faoliyatida bo'sh vaqtda ijtimoiy madaniy maqsadlarni amalga oshirish orqali foydalanish usullari, omillarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat dargohlardagi kompyuterlar insonlar uchun faqat o'yin quroli bo'lib qolmasligi, o'yinlar insonlarning ijodiy qudratini, qobiliyatlarini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi zarur. Bu o'yinlarda insonlar uchun fikrlash talab etilmaydi. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, kasb-hunar to'garaklarini ochish turli qiziqarli kurslar tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Havaskorlikni rivojlantirish ham madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkiliy tarbiyaviy muassasa sifatida ahamiyatni oshiradi.

Madaniy - ma'rifiy xodimning malakaviy faoliyati o'z maqsadi mohiyati bilan tarbiyaviy ishdir. Uning asosiy vazifalari har tomonlama komil topgan shaxs shakllantirishdan iboratdir. Madaniy - ma'rifiy xodim mustaqil O'zbekistonning milliy siyosatining targ'ibotchisi mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash,

ommaning havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan ma'naviy barkamol inson tarbiyalash ishi bilan shug'ullanadi⁷..

Umummehnatkashlarning madaniy dam olish, o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Insonlar bilan ishlashga da'vat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg'uloti insonlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg'ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma'rifiy xodimlarning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo'naltirish va ularni bir yo'lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlari o'rtasida g'oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar⁸.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'ibot qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

⁷ Jabborov F. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003

⁸ www.ziyounet.uz O'zbekiston talim portali.

Jamiyat rivojlanishiga o'z xissasini qo'sha oladigan o'tmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati an'alarining, ilg'or tajribalarini va ilmlarini meros qilib olgan ma'naviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu tarbiyaning bosh yo'li maqsadi yo'lida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi jamiyat quruvchilari tarbiyasi yo'lidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi ma'naviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir.

Insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'rnini beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning ko'ngilliligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga ijtimoiy ravishda keladilar. Maktablarga, o'quv yurtlariga esa kishilar o'z hayotini ehtiyojlarini qondirish tufayli bilim olish, kasb o'rganish, biron bir mutaxassislikni egallash uchun keladilar. Natijada ularga deyarli bir necha xil yo'ldagi, malakalari va qiziqishlari, maqsadlari bir xil bo'lgan kishilarga qatnashadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga aholining turli qatlami o'zini ma'naviy talab va istaklarini bayon etish, havaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro axvolda mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan voqealarni anglash haqida axborotlar olish, do'stlar, o'rtoqlari bilan suhbatlashish hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun keladilar.

Shuning uchun ham bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy ta'sir etish ishlari ancha murakkabdir.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarini uyushtirish uchun dastavval aholi turli qatlamlarini ma'naviy talab va istaklarini madaniy saviyasini, kasbi va mutaxassisligini ommaviy axborot vositalari orqali va mustaqil o'qish natijasida olgan yangi bilimlarini darajasini hisobga olish zarurdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiyaviy ishlar uning qatnashuvchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashuvchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi, ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faoliyatiga tashkilotchilarning faoliyatiga tayanadilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning har bir tadbiri qatnashuvchilari ham tarbiyalovchisi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yurtida esa tarbiyaviy ta'sir etish obyektni o'rganuvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, qiroatxonalar shular jumlasidan demakdir. Madaniy va ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari va madaniyat saroylari kiradi.

Muzeylar tarixiy, o'lkashunoslik, tabiat, san'at va turli ilm hamda kasb-kor, shon-shuhrat muzeylardan iboratdir.

Shahar, tuman va aholi zid joylashgan har bir dahada madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud. Teatr, konsert tashkilotlari, hayvonot va istirohat bog‘lari, botanika bog‘lari, sirkar va boshqalar tomosha muassasalari hisoblanadi. Madaniy-ma’rifiy ishlarni oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turar guzarlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda g‘oyaviy, siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining turli guruhdagi, biz maktabdagi tarbiya yoshidagi o‘quvchilar, insonlar, o‘smirlar, o‘g‘il va qizlar, erkaklar va ayollar, katta rol o‘ynaydi, kampirlar, talabalar, yosh ishchilar, sanoat, transport aloqa vositalari va boshqa sohalarning ishchilari, chaqaloq, ho‘jalik xodimlari, ziyolilar, uy bekalari va boshqalarni tushunamiz.

Aholining bu guruhlari har biri o‘ziga xos shakl va usullariga tadbirlar uyushtirishni talab etadi.

Turli millatlarning mehnatkashlari o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o‘ziga xos xususiyatlari, ruhiyatini, turmush tarzini, an’analarini, urf-odatlarini, marosimlarini hisobga olish juda ham muhimdir. Madaniy muassasalar xodimlari aholining doimo o‘tib kelayotgan ma’naviy talabi, ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama qanday ekanligini qondirishga qaratilgan bo‘sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g‘oyaviy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradi. Kishilarning o‘zaro muloqatda dunyo qarashi turli tuman hayotiy masalalarni va siyosatdagi kundalik dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish yo‘li bilan madaniy-ma’rifiy muassasalar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi⁹.

Hozirgi vaqtda madaniy-ma’rifiy muassasalarning eng muhim vazifasi mehnatkashlarning madaniy dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko‘nglini hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud bo‘lgan

⁹ Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma’naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. - 140

turli an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning bo'sh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, san'atning gurullab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning vazifalari va ular oldiga qo'yilgan talablar bir-birini to'ldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-ma'rifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning o'ziga xos milliy siyostai bilan mustahkam bog'laganligidir.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgandan beri sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarning o'z-o'zini qayta anglashi, ota-bolalar merosiga alohida e'tibor bilan yondashishi, ahloqiy qiyofasi, fe'l-atvori, o'zgarib ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondan-qonga o'sib boryapti. O'zgargan sharoit shaxsga g'oyaviy ta'sir etishi, uning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yanada yangiroq, samaraliroq vositalar va usullarni qo'llashni talab etadi. Bu bir tomondan ommani, uning ehtiyojlarini yaxshi bilishni ikkinchi tomondan madaniy-ma'rifiy ishlarning shakli va usullarini tashkillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar pedagog faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraligi, shaklan nihoyatda xilma-xilligi shu shakllarning o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan ham farq qiladi. Bundan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalarda ommaviy axborot va sanoat vositalari, texnika vositalari, ommaning havfsizligini rejali, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim barcha tarbiyachi pedagoglar qatori tarbiyaning hamma yo'nalishlari aqliy, mehnat, ahloqiy, iste'dod, estetik va jismoniy tarbiya masalalari bilan shug'ullanadi. Lekin u bunday ko'p qirrali tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'quvchi, murabbiylar faoliyatlarida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikdan o'quvchilar yoki talablar bilan emas, balki, yosh kasb bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boriladi.

O'quv yurtlarida tarbiya vazifalari asosan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniy-ma'rifiy xodimlar esa milliy mafkura va milliy g'oya tarbiya vazifalarini mehnatkashlarning bo'sh vaqtida dam olishni oqilona uyushtirish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida madaniy va ma'rifat maskanlarida tashkil etiladigan havaskorlik uchrashuvlarini ixtiyoriy mashg'ulotlari orqali va xilma-xil ommaviy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, insonlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib, bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini ya'ni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlari majmuini egallagan bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng zarur bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri bu pedagog bilimlar bo'lib, u olib boradigan ta'limiy hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati chuqur tushunib olishda, insonlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga uning yo'llari va vositalarini, bo'sh vaqt sharoitida insonlar o'rtasida o'zaro muloqat o'tkazishning eng samarali usullarini o'zlashtirib olib, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganishda yordam beradi¹⁰.

¹⁰Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. – 145 b.

Insonlarda xavas uyg'ota olish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini to'laroq qondira bilish san'atidir.

Bu san'at pedagog odobini egallab olishni ta'lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim malakaviy madaniyatning yana bir muhim ko'rsatgichi - bu psixologik bilimlaridir. Faqat psixolog qonuniyatlarini puxta o'zlashtirishi, uni uyushtiradi, qatnashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosidagina tarbiyaviy uyushtirish va uning samarali jarayoni to'g'ri uyushtirish bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Bugungi kunda madaniyat va sa'nat muassasalari orqali insonlarga ta'lim tarbiya berish va boshqa ta'lim muassasalari hamkorligida targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish insonlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor berish, ular har xil oqimlarga kirib qolmaslikka davat etish muxim masaladir.

Insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

«Insonlarni g‘oyaviy taxdid va past saviyali «ommaviy madaniyat»ning zararli ta’sirlaridan himoya qilishning ilmiy-metodik masalalari tug‘risida» davra suhbatlari, savol-javob kechalari, ilmiy anjumanlar o‘tkazish;

O‘zbekistonning barcha tarixiy yodgorliklari to‘g‘risidagi malumotlardan iborat bo‘lgan kitob-kataloglar; O‘zbekistonning jamoat tashkilotlari tomonidan talantli insonlarni qo‘llab-qo‘vvatlash sohasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida hikoya qiluvchi «Kelajak bugundan boshlanadi», «Kelajakka intilish» rasmiy kitob-albom. Quyidagilarni hisobga olgan holda milliy g‘oya va mafkura, mamlakatimiz tarixi mavzulari buyicha veb-resurslarni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

II. BOB. INSON MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALAR

SUBYEKTI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

2.1 Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlarning madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim.¹¹ Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avlodidir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, ertaga bizning kelajagimiz ham shunday bo'ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta'lim berish, ularni mehr-oqibatli, bilimli, saxovatli, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga yetkazish jamiyatimizning asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i lozim.

Bolalar tarbiyasi bilan oila, bolalar bog'chasi, maktab va boshqa bilim dargohlari shug'ullanishi barchaga ma'lum. Biroq ularning, ayniqsa, bilim dargohlarining tasarrufidan tashqarida yoshlarning o'qishdan, ishdan tashqari bo'sh vaqti qolmoqda. Bo'sh vaqtda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shug'ullanmoqda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlarga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashg'ul bo'lishmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar (ayniqsa, klub, madaniyat saroyi, madaniyat uyi kabilar)ning imkoniyati kattadir. O'quv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishga ko'mak beradi. Biroq, joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun asosan umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.

Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida e'tibor berishmayapdi. Natijada madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlarni ma'naviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati darajasi pasayib ketmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Biz ishimizda yuqorida qayd qilingan muammolardan kelib chiqib, madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlash masalalariga to'xtalamiz. Madaniy-ma'rifiy faoliyat muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, badiiy havaskorlik ishlarni va bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, klub muassasalari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu ko'ngilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimlarini, dunyoqarashlarini o'stirishga, ijodkorliklarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xullas, klub muassasalari, yoshlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish;
- havaskorlik ijodini uyushtirish;
- madaniy dam olishni tashkil qilish;

Klublarda yoshlar uchun tadbirlar uyushtirishdan oldin mahalliy yoshlarning:

- ma'naviy ehtiyojlari,
- qiziqishlari,
- bilim darajalari, kasbi,
- madaniy saviyalari,

- ijodiy imkoniyatlari,
- vaqt byudjeti va bo'sh vaqti,
- tashabbuskorligi va uyushqoqligi

kabi ko'plab omillar hisobga olinmog'i darkor. Aks holda klubda tayyorlanadigan tadbirlar yoshlar uchun qiziqarli bo'lmay qoladi. Mazkur omillarni hisobga olish, o'rganish, bilish uchun yoshlar o'rtasida yozma va og'zaki so'rovlar, sehatlar, kuzatishlar o'tkazilishi lozim. So'rovlarda yoshlarga:

qaysi mavzular,
qanday shakllar (tadbirlar),
qaysi ta'sirchan g'oyaviy-badiiy va texnik vositalar yoqishini o'rganmoq lozim.

Yoshlarni qiziqtirgan mavzularni muayyan mantiqiy tizimga solib, ularning mazmuniga mos shakllar tanlab, yoshlar uchun maxsus tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Zamonaviy yoshlarni quyidagi mavzular qiziqtirishi mumkin:

1. Tarixiy mavzular.
2. Milliy qadriyatlar.
3. Xalq an'analari.
4. Odob, axloq.
5. Kiyinish madaniyati.
6. Do'stlik va do'stlikni saqlash.
7. Qizlar va yigitlar munosabatlari.
8. Muhabbat, sevish va sevilish.
9. Bo'sh vaqtni foydali o'tkazish.
10. Mehmondo'stlik.
11. Ozodalik va tozalik.
12. Ichkilikbozlik va giyohvandlik oqibatlar.
13. Oila fayzi va hokazolar.

Klub xodimlari yoshlarni qiziqtirgan mavzuni mantiqiy tizimga solganidan so'ng ularga qanday shakllar-tadbirlar yoqishini ham aniqlash kerak. Klub muassasalarining

ishi, shakllari esa ko‘p va rang-barangdir: ma’ruza, ma’naviy muloqot, axborot, suhbat, seminar, munozara, konferensiya, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, jurnal, turli kechalar, konsert, spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayillari, bayramlar, karnavallar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya, madaniy sayr, viktorina, ko‘rgazma, ko‘rik-tanlov va hokazolar.

Aytaylik, yoshlar ko‘proq dam olish kechalari, ijodiy bahs, uchrashuvlar, diskoteka, estrada konsert, teatrlashgan tomosha, xalq sayillari, sayohat kabi shakllarni tanlashdi. Klub xodimlari ko‘proq ana shu shakllardan samarali foydalanmog‘i kerak.

Yoshlarni qiziqtirgan shakllar aniqlangandan so‘ng, klub xodimlari mahalliy joydagi yoshlar qo‘mitasi bilan birgalikda yillik tadbirlar rejasini tuziladi. Rejada tadbir o‘tkaziladigan sana, tadbir nomi, shakli, o‘tkazilish joyi va javobgar shaxslar ko‘rsatiladi¹².

Tadbirlar rejasi yoshlar ehtiyoji va mahalliy sharoitdan kelib chiqib boyitilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Qanday bo‘lmasin mahalliy madaniyat uyi va yoshlar qo‘mitasi bilan rejalashtirilgan tadbirlar yoshlarni qiziqtirish, mavzuga jalb etish lozim. Vaqt o‘tishi bilan klub tadbirlari ham yoshlar sinovidan o‘tadi. Shundan kelib chiqib kelgusi yilgi rejada qaysi tadbirlarga ko‘prok e’tibor berishni hayotning o‘zi ko‘rsatadi.

Yoshlar uchun tadbirlar tayyorlash ma’suliyatli va murakkab jarayondir. Biz mazkur ishda faqatgina uning ayrim tomonlariga diqqatni jalb etib, yoshlarni madaniy dam olishi, yoshlar klubi va yoshlar saylini tashkil qilish masalalariga to‘xtalamiz xolos..

«Bo‘sh vaqt-ijtimoiy boylik» deyishadi. U insonning qobiliyatini takomillashtirishi, bilim olishi, ma’naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat

¹² Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent.:Sharq, 2002. - 848

unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo'lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog'liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir.

Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha klub tadbirlarida sodir bo'ladi. Biroq, klub shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, xordiq chiqarish asosiy vazifa qilib quyiladi.

Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, klub, madaniyat va istirohat bog'lari yoshlarning bo'sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy havaskorlik tugaraklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalari, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar bo'sh vaqtida qatnashadigan tadbirlar doirasi anchagina keng. Ular orasida muloqotli, kungilochar - «Dam olish kechasi», «Shanba oqshomida», «Kulgi kechasi», «Do'stlik kechasi», «Qizlar davrasida» kabilar; San'at bilan bog'lik bo'lgan - «She'riyat kechasi», «Doston kechasi», «Qo'shiq va raqs oqshomi», «Musika ohangi», «Teatr ko'zgusi» kabilar; Bayramona dam olishga oid i - «Bog' sayli», «Tog' sayli», «Lola sayli» kabilar;

Xalq o'yinlari, musobaqalarga boy «Sog'lik - tuman boylik», «Azaliy o'yinlar» kabi tadbirlar keng shdhrat qozongan¹³.

Madaniyat va istirohat bog'lari va klublarida uyushtiriladigan tadbirlar foydalanilgan vositalar turli tavsiya xarakterida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ma'rifiy-huquqiy, musiqali-raqsli va badiiy-adabiy turdagi tadbirlarni tashkil qilish yaxshi natija beradi. Ma'rifiy-xordiqli tadbirlardagi yangi axborotlar, ma'lumotlar, bilimlarni olish, xordik, chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

¹³ www.ziynet.uz

Odatda bunday dasturlar ikki qismdan tashkil topadi: birinchi bo‘limda yoshlarni qiziqtiradigan mavzu tanlanib, bunda axborotlar badiiy shaklda tomoshabinlarga havola qilinadi. Ko‘pincha bu qismga odamlarni o‘ylantiradigan va hayajonga soladigan muammolar ham olinadi. Dasturning ikkinchi qismida esa maroqli dam olish uchun unlab turli qiziqarli o‘yinlar, topishmoqlar, viktorinalar, qo‘shiqlar va hokazolar foydalaniladi. Musiqali-raqsli tadbirlar, asosan, musiqa, ashula va albatta raqslardan tashkil topadi.

Bunday tadbirlarda bu san‘at turlarining eng yaxshi na‘munalari targ‘ib qilinadi. Unda eng yaxshi raqs uchun musiqa bilimdonlari va sevimli qo‘shiq ijrosi uchun omma o‘rtasida tanlovlar o‘gkazilishi mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarni ikki turi bor, ularning biri kichik auditoriya uchun mo‘ljallanib, undan musiqa fonotekasidagi texnik vositalardan foydalaniladi, ikkinchisiga esa kichik estrada ansambli taklif qilinib o‘tkaziladi. Shuningdek, musiqa-raqs dasturlari o‘zbek va chet el musiqasi, raqs san‘atiga bag‘ishlanib, unga mashhur bastakorlar, ashulachilar va raqs ustalarini taklif qilish mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarning asosiy vazifalari san‘atni targ‘ib etish, yoshlarni musiqa va raqs ijodiga oshno qilish, ularga ma‘naviy ozuqa berish.

Badiiy-adabiy tadbirlar - adabiyot va san‘at janrlaridan tashkil topgan dasturlardir. Bunday tadbirlarda badiiy-emotsional vositalar: badiiy so‘z, she‘r, monolog, qo‘shiq, ashula, raqs kabilar muayyan mazmunga bog‘lanib teatrlashtiriladi. Adabiy-badiiy tadbirlar foydalanadigan vositalarga boy bo‘lgani uchun, ular odatda ijtimoiy-falsafiy muammolarga ham bag‘ishlanib, yoshlarni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bunday tadbirlarni tashkil qilishda tashkilotchilarning bilim doirasi, dunyoqarashi, qobiliyatlari va tashabbuskorligi muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yoshlarning ma‘naviy kamolotiga e‘tibor berish, kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida xalq an‘analari va qardosh xalqlar tajribasi asosida joylarda yoshlar talab va ehtiyojlarini hisobga olib maxsus sayil o‘tkazilsa yaxshi bo‘lar edi. Yoshlar saylini - 24 aprel “Yoshlarning xalqaro birdamlik kuni”, yoki “10 noyabr – Butun jahon

yoshlar kuni” yoki mahalliy sharoitga qarab boshqa kun uyushtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bayram boshlanishidan oldin maktablar, tarbiya muassasalari, o‘quv yurtlari, mehnat jamoalarida maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

Mahalliy yoshlar qo‘mitalari turli tadbirlar, jumladan, yosh rassom, yosh qo‘shiqchi, yosh shoir, yosh raqqosalar tanlovlarini rejalashtirsa ayni muddao bo‘ladi. Bayramning ochilish qismida yoshlar qo‘mitasining raisi, kotiblari, mahalliy hokimiyat rahbarlari, yoshlar hay‘ati, faoliyati haqida so‘zlaydilar, ularga o‘z istaklarini bildirishadi. So‘ng katta sayil boshlanadi. Unda har bir o‘quv dargohi o‘z ijodi, san‘atini namoyish qiladi.

Yoshlar o‘rtasida qiziqarli o‘yinlar va sport musobaqalari o‘tkaziladi.

Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko‘rik-tanlov g‘oliblari taqdirlanadi, ularga bag‘ishlanib ko‘y va qo‘shiqlar ijro etiladi.

Bo‘sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o‘zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo‘ladi. Buning uchun madaniyat muassasalarda yoshlar to‘planadigan, suhbatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog‘i lozim. Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar klublari», «Yoshlar ijodiy guruhlar» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo‘ladi. Ayniqsa, madaniyat uyi qoshida keng qamrovli faoliyat olib boruvchi «Yoshlar klubi» tashkil qilish ijobiy natija berishi mumkin. «Yoshlar klubi»ning a‘zolari o‘zlarining ma‘naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida turli shakldagi maroqli va mazmunli tadbirlarni uyushtirishi mumkin.

Shuningdek, ular nafaqat o‘zlarining, balki mahalliy yoshlarning madaniy dam olishiga yordam berishi diqqatga sazovordir. «Yoshlar klubi»ni tashkil qilish borasida quyidagi metodik maslahatlarni tavsiya etish mumkin: «Yoshlar klubi» maxsus reja va dasturlar tuzib, ish olib boradi, klub a‘zolari dam olish kechasi tashkil qilib, unta

har gal yangi jamoa a'zolari, yosh ishchilar, talabalar, yuqori sinf o'quvchilari va boshqalarni taklif qilsa bo'ladi. «Yoshlar klubi»ga, albatta, rais, tashkilotchi va bo'limga javobgar shaxslar saylanishi kerak.

Klub raisi - umumiy raxbarlik qilib, yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqtni rejalashtiradi. Raisga yordamchi - maxsus tashkilotchi ham belgilanadi. Eng qiziqarli ishni badiiy qismga javobgar shaxs olib borishi mumkin. U har bir yig'ilishning badiiy programmasini tuzadi. U uyushma a'zolarining ijodiy qobiliyatlaridan kelib chiqib, she'r, hikoya, ashula, askiya, latifa, topishmoqli o'yinlarni kim va qachon aytishini belgilaydi.

Bu ishning diqqatiga sazovor tomoni shundaki, u uyushma a'zolarining u yoki bu sohadagi ijodiy qobiliyatini ochadi. Uyushma a'zolari rioya qilishi shart bo'lgan «Nizom» qabul qilinishi -bu intizom ishlarini yaxshilashga asos bo'ladi. Intizomga javobgar shaxs - bu ishlarni nazorat qilishi bilan birga, yig'ilish bo'ladigan joyni tartibga keltiradi.

«Yoshlar klub»larining foydali tomonlari shundaki, u eng avvalo, yoshlarni yaxshi hordiq chiqarishga, muloqot, suhbat natijasida ma'naviy boyishga, ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilish va rivojlantirishga ko'mak beradi.

«Yoshlar klubi» faoliyatini uyushtirish va ularni ijtimoiy foyda keltiradigan darajada tashkil qilishga yordam berish - bu mahalliy madaniyat muassasalarining jiddiy vazifasi bo'lmog'i lozim¹⁴.

Yoshlarning ravnaqi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan bo'sh vaqtdan samarali foydalanishda madaniy-hordiqiy tadbirlarning ahamiyati benihoya kattadir.

Yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlashda madaniy-ma'rifiy muassasalar va yoshlar qo'mitasi hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Tashkilotchilar yoshlar uchun tadbirlar uyushtirayotganida an'analar, tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda yangilik, ijodkorlik, tashabbuskorlikka

¹⁴ www.ziynet.uz

aloxida e'tibor bermoqlari zarur. Yoshlar ijod va yangilik shaydolari ekanliklarini unutmaslik kerak.

Shuni qayd qilish kerakki, turli joyda yoshlarni vaqti, ehtiyoji, qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. Bir hududda shuhrat topgan tadbir, boshqa joyda qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Shuning uchun har joyning o'z tadbirini topishga intilish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chuqur ma'noli, mazmunli va shaklan go'zal va qiziqarli tadbirlar ko'pchilikka yoqar ekan. Joylarda yoshlarning madaniy dam olishini uyushtirishda tadbirning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, yoshlar uchun tadbirlar tashkil qilishda mahalliy sharoit, madaniyat muassasalarining moddiy, ma'naviy, badiiy va texnik imkoniyatlaridan hamda badiiy havaskorlik jamoalarining ijodidan samarali foydalanmoq lozim.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamalakatga aylandi

O'zbek davlatchiligi rivojidadagi tarixiy tajribalarga tayangan holda, insonparvar, demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda yoshlarni faol ishtirok etishlari endilikda hayotiy dolzarb masala bo'lib turibdi.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini

amalga oshirishda mardlik, fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir¹⁵.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlool bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'naltirilganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Qadim zamonlarda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb xisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasalar respublikamiz madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, viloyatlar, tumanlar, qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashishini amalga oshirish, shuningdek, insonparvarlik, qalban poklik, mehru-muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaholatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ongu shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Xalq ijodi-tarixiy taraqqiyot davomida xalqning ideallariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo'lib kelgan.

Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari hamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy mahorati bilan bir qatorda

¹⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.:, 1995

ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimov fikriga to'xtalish darkor- "Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz¹⁶." Bu bevosita madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyati doirasida xalq amaliy san'ati na'munalari, texnik ijodiyot, badiiy adabiyot orqali milliy **mentalitetimizga xos xususiyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bu bevosita yoshlar hayot faoliyatining maqsadli yo'naltirishda ulardan foydalanish ham moddiy, ham ma'naviy ta'minot bazasiga aylantirishdan iborat faoliyat faqatgina ta'lim muassasalarining vazifasi emasligi, bu jarayon aynan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat turi va maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerakligini yana bir karra isbot etadi.**

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini ta'minlaydi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'zigina haqiqiy tassurotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasi bo'ladi.

Xar qanday sharoitda ham barcha millat va xalqlar o'zining ma'naviy extiyojlarini qondirishga muhtojlik sezadi. Ma'naviyat – inson uchun mavjudlik belgisi. Ma'naviy boylik – u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muhim omildir. Ma'naviyati yo'q xalqning o'zi yo'q. Shu bilan birga xar bir xalq ma'naviyati ham bir xil darajada emas.

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000

Shu o'rinda Yurtboshimizning «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilarmiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»,—degan fikrlarida juda katta mantiq va ma'no bor. Biroq, sho'rolar mustabid tizimi sharoitida o'zbek milliy madaniyati haddan ortiq darajada zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o'zbek xalqini qul qilish uchun eng avvalo shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar.

Ta'kid etish joizki, ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini xech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. To'g'ri mustamlakachiliklar natijasida o'zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma'naviy ildizlarini qirqib tashlashga urinildi.

Lekin ular buning uddasidan chiqa olmadilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga uzoq va yaqin tarix guvohdir. Endigi vazifa – ma'naviy hayotdagi barcha yo'qotishlarning o'rnini qoplashdan iborat bo'ldi. Bu narsa xalqimizning ma'naviyat va ma'rifatga muhtojligi va uning tanqisligi bilan belgilandi. Kishining o'zligini anglashi, o'z sha'nini himoya qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'lmog'i, qalbining tubida, jinday bo'lsa-da, ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim.

Ana shunda odam gunohdan hazar qilish, barcha ne'matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalanish yo'lini tutadi. Nojo'ya hatti-harakatlari uchun tavba-tazarru qilish zarurligini anglay boshlaydi.

O'zbek xalqi aynan shu yo'ldan bordi, o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo'qotilgan, toptalgan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni uyg'otdi.

Istiqlol yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining butun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi.

Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Ayniqsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emas, zero mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maqsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi.

Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini hal etish, tomoshabinlarni bezdiradigan sahna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi spektakllarni fuqarolar hukmiga havola etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Xozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 36 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Unga binoan, O'zbekiston teatr san'atining ko'p asrlik an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash, O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

«O'zbekteatr» birlashmasi o'zining teatr tashkilotlari hamda mintaqaviy bo'limiga ega bo'lib, mulkchilik shakllaridan va qandaydir muassasaga idoraviy daxldorligidan qat'iy nazar mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr studiyalarida xalq teatrlari va boshqa tegishli tashkilotlar jamoalarini ixtiyoriy tartibda birlashtirdi.

Teatr san'atini rivojlantirish yo'lida 1998-yil noyabr oyida o'tkazilgan «Xumo» xalqaro yoshlar teatrlarining festivali aloxida ahamiyat kasb etdi.

Ushbu festivalda O'zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

O'zbekistonda istiqlol yillarida ma'naviy madaniyatning muhim jabhasi bo'lgan musiqa san'ati ham juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at axliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir.

SHo'rolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik quliga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan bahramand bo'la boshladilar¹⁷.

O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib milliy ruhdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni doimo rag'batlantirdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshlandi.

Xususan, 1992 yil mart oyida Toshkent shahrida tanbur, sato, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janaq Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlar» deb nomlangan ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ayni vaqtda 1992 yil may oyida Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX an'anaviy va lapar, yalla ijroiylarining avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan XI an'anaviy ko'rik tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta xissa bo'lib qo'shildi.

¹⁷ Ashirov A., Ahmadjonov Sh. Etnologiya. - T., 2007

Mamlakatimiz xukumati qo‘shiqchilik san‘atidan mustaqillikning ma‘naviy zaminlarini mustaxkamlashda ham unumli foydalanishga e‘tiborni kuchaytirdi.

Shu maqsadda 1995 yil dekabrda «O‘zbekiston – Vatanim manim» mavzuidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e‘lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shaxar va tumanlarda juda katta ko‘tarinkilik ruxida o‘tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi, ko‘plab iste‘dodli san‘atkorlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.¹⁸

«O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq ko‘rik-tanlovining 1996 yil mart oyida bo‘lib o‘tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san‘atkorlar ishtirok etdi, 10mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki, mazkur tanlov istiqlolni, Vatanni, o‘zligini anglashda muhim qadam bo‘ldi.

Xalqimizning bunday tadbirga qiziqishi ortiq bo‘ldi.

Bularning barchasini e‘tiborga olib, 1996 yil avgustda «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq bayrami xaqida» maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg‘usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo‘shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida xar yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni deb belgilab qo‘yildi.

Ayni paytda, xalqimizning qo‘shiqchilik san‘atiga bo‘lgan buyuk qiziqishini e‘tiborga olib, Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzurida «O‘zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko‘rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o‘zbek milliy, shu bilan birga mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o‘z san‘atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san‘atning qo‘shiqchilik turiga teng e‘tibor berilishi, ularning uyg‘un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san‘at turi yanada rivoj topmoqda.

¹⁸ www.ziynet.uz

2.2. Madaniy-ma'rifiy ishlar orqali inson faoliyatini optimallashtirish

INSON - kishi, uning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi. talab-ehhtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab, oliy mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti, hayot gulidir. Insonning bebaholigi-uning aql-idrok va tafakkurga egaligida. U aql-idrok sohibi bo'lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Insonning ichki ma'naviy dunyosi, uning qiziqishlari, e'tiqodi, tushunchalari ming yillar mobaynida shakllandi, ongda mustahkamlanib bordi. Shunga ko'ra, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi tub o'zgarishlar mahsuli bo'lgan inson ongidagi o'zgarishlar, birmuncha murakkabroq kechib, ma'lum vaqt ichida yuz beradi. Obyektiv olamda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan hodisalar, ularning umumlashmalari asosida inson tushunchalari, ongi, fikri shakllanadi. Inson ruhiy dunyosini o'zgartirish yo'lida bo'lgan zo'rliklar, tazyiqlar, so'zsiz ravishda ichki, yashirin qarama -qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Inson mavjud ekan, uning shaxsiy manfaatlari ham albatta, mavjud bo'ladi. Har biri jamiyatdagi boshqa odamlar bilan birga umumiy manfaatlarga egadir va ayni zamonda uning o'ta shaxsiy, faqat o'zigagina xos bo'lgan talab-istaklari, qiziqishlari ham bo'ladi, Insonning qiziqishlari, talab va ehtiyojlari, shaxsiy manfaatlarini zaruriy ravishda e'tiborga olmasdan ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rmasdan turib, odamlarning kuch-qudrati va imkoniyatlaridan unumli, oqilona foydalanib bo'lmaydi.

Sharq falsafasida insonda ikki qarama-qarshi asos: modda va ruh mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqada qolib ketmasligi kerak. Agar ana shu tartib buzilib.

moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jismning quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy xolatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surib tashlanadi. Aksincha ruhiy-ma'naviy tomonlari taraqqiy etgan insonlarda aqliy zakovat, insof-diyonat, odob-axloq ilmu-ma'rifat, ularning mol-dunyoga berilishi hayvoniy nafslarga qul bo'lish singari xato va nuqsonlaridan ustun keladi. Ruhiy-ma'naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatlardir. Insonni inson qilgan asosiy fazilat - yeb-ichish, tabiiy ehtiyojlarni qondirish emas, balki mehnat qilishi, aql-idrok va tafakkurga ega bo'lishi, fikrlay olishi, madaniyat va ma'naviyat sohibi ekanligidadir. Ma'naviyat insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloq-odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma'naviyat inson hayoti va faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradi.

Madaniyat industriyasi konvensiyasi ma'rifatchilik an'anasiga (unga xos bo'lgan, voqelikni «qanday bo'lsa, shundayligicha» anglash va, tegishlicha, jamiyatning qolgan qismi uchun ham fikrlash va imperativlar hamda qadriyatlarga taalluqli bo'lgan barcha narsada unga yo'l ko'rsatish huquqi bilan) oshkora bog'liq bo'lgani xolda kun jihatdan ommaviy kommunikatsiya vositalarining faoliyat xususiyatidan va ularning tijoratga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan tarixan yangi, zamonaviy shaxsni madaniy faoliyat subyektiga aylantirdi. Zamonaviy madaniyatshunoslar va yozuvchilar, masalan, amerikalik yozuvchi D. Mikeshe, jamoatchilik fikri, didi, madaniyatning o't, surg'i dori, sigaret, sovun, pishloq ishlab chiqaradigan firmalar tomonidan yo'naltirilishi hamda belgilanishini ko'rsatishadi¹⁹.

Shunday qilib, ommaviy madaniyatda uning artefaktlarini ijtimoiy psixologiya va bozor munosabatlari qonunlariga muvofiq yaratuvchi alohida professional guruh ushbu madaniyat subyektiga sifatida voqea bo'ladi. Asosiy xususiyatlari tanqidsizlik, boshqaruvchanlik, ma'naviy bachkanalik bo'lgan, shaxsga xos ibtido burtib turmagan omma kishisi-tabaqalashtirilmagan subyekt uning sohibi hisoblanadi. Inson ommaviy madaniyat muallifi bo'lmay, balki boshqarish obyektiga

¹⁹ Bo'riyev O., Xoliqov D. Turkona an'ana va udumlar – millat ko'rki. - T., 1998.

aylanadi. Inson ommaviy madaniyat maxsulotini iste'mol qilishga o'rganar ekan, uning siyqasi chiqqanligini fahmlamay qoladi (bu iste'molchilik uni ijoddan yiroqlashtiradi), ommaviy madaniyat insonni ichki rivojlanishga rag'batlantirmaydi.

Inson o'zini boshqa kishilar bilan madaniy birlik asosida emas, balki emotsional kechinmalar birligi, umumiy - iste'molchilik qadriyatlari, qarashlar, axborot muhiti va madaniy industriya ta'siri ostida shakllantiriladigan olam bilan munosabat strategiyasini qaror toptirish asosida aynanlashtiradi. Bular inson bilan jamiyat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi, chunki tarmoq kommunikatsiyalari davrining ommaviylashtirilgan individi an'anaviy guruh ichki aloqalaridan mahrum bo'ladi, sotsiium esa bunday shaxsni o'ziga xos guruhii madaniyatdan xabardor etish imkonini yo'qotadi. Bunda bevosita muloqot o'rnini bevosita kommunikatsiya vositalari egallaydi. Natijada industrial va noindustrial jamiyatda ommaviy madaniyat bu jamiyatlarning funksional vazifalariga va ularning rivojlanish tipiga maqbul tarzda muvofiq keladigan individ tipini yuzaga keltiradi. Ayni mahalda tarixiy ta'sirning ushbu subyektini hosil qiladigan va uning tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ommaviy madaniyat ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi o'ziga xos tizimga aylanadi.

Shu tariqa, muayyan maqsadni ko'zlab yaratiladigan va insonga nisbatan «tashqi» bo'lgan tijorat ommaviy madaniyati doirasida madaniyat subyekti emas, balki ta'sir obyekti bo'lgan inson mo'ljalga olinadi. Ommaviy madaniyatning hozirgi sharoitdagi haqiqiy vazifasi, funksiyalari muammosi shu bilam bog'liq, chunki industrial jamiyatning o'ziga xos oqibati bo'lgan bu madaniyat o'ziga xos rollarga ega bo'ladiki, bular haqida alohida to'xtash lozim.

Ko'ngilocharlik. Ko'ngil ochish funksiyasi ommaviy madaniyatning asosiy jihatlaridan biri sanaladi, o'z davrida M. Monten feodalizmdan keyingi jamiyatda insonning boshiga tushishi kutilayotgan yolg'izlikdan xalos bo'lish uchun ko'ngil ochishni taklif qilgandi. «Rang- baranglik doim yengillashtiradi, elitadi, chalg'itadi. Agar men o'zimga yopishib olgan noxush tasavvurni yenga olmasam, undan o'zimni

olib qochishga harakat qilaman va, qochar ekanman.., joyimni, mashg'ulotimni, jamiyatni o'zgartirar ekanman, boshqa ermaklar hamda fikrlar og'ushidan omonlik topaman». Mexanizatsiya va mehnat taqsimoti inson vaqti va kuchini bo'shatib bergan, begonalashish jarayonlari esa kishilarling bir-biridan ajralishiga, yolg'izlik hissini, individning o'z «men»ini yo'qotishiga olib kelgan sharoitda ko'ngil ochish zarurati yanada kuchliroq seziladi. Bularning bari ommaviy madaniyat kishisini ko'ngilochar vositalarni avvalgidan ko'ra faolroq, shu jumladan ommaviy madaniy industriyadan izlashga majbur etadi²⁰.

Madaniyatning ko'ngil ochish funksiyasi uning zimmasiga qadimdayoq yuklangandi. «O'tmish asrlardagi eng ko'hna falsafiy maktablardan biri miloddan avvalgi V asrda Suqrotning do'sti Aristotel tomonidan asos solingan greklar kirenaiklar maktabi edi. Bu maktab etika ta'limoti-gedonizmni yaratdi. Gedonistlarning ta'kidlashicha, zavqlanish insonning butun hatti-harakatining maqsadidir. Ommaviy madaniyatning bu qadar ko'hna g'oyaviy manbalarga egaligi go'yoki faqat texnik vositalar (XX asrda) «global madaniyat»ning yangi tipini yuzaga keltirdi, deb ta'kidlaydigan nazariyalarga qarshi dalil-isbotdir».

Garchi ommaviy madaniyat hodisasining dunyoqarash-metodologik asoslari burjuaziya tarix sahnasiga chiqqan lahzadan shakllanishni boshlasada, yuqoridagi fikrlar bilan bahslashish qiyin. Badiiy madaniyatning gedonistik funksiyasi aynan shu lahzadan boshlab ommaviy madaniyatdagi belgilovchi jihatlardan biri bo'lib qoladi.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiylashuvida ya'ni jamoaga qo'shilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladigan funksiyalardan biri bu kommunikativ madaniyatdir.

Kommunikativ madaniyat - umuminsoniy madaniyatning asosiy negizi sifatida insoniyat yaratgan butun boyliklarni qamrab olib, turli kasb egalari u yoki bu sohani amalda rivojlantirishga hissa qo'shishiga zamin yaratiladi. Shunday ekan, bugungi kunda o'quv jarayoni va kasbiy faoliyatda kommunikativ madaniyatni shakllantirish

²⁰ Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar.O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005

dolzab muommolardan hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga zamonaviy bilim berish, ularni hayotga tayyorlash, yangi pedagogik texnologiya usulida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, yoshlarda mutaxassislikka bo‘lgan qiziqish hissini uyg‘otish va kommunikativ madaniyatni puxta egallashlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Darhaqiqat, talabalar ongida kommunikativ madaniyatni shakllantirish va mustahkamlash - bu fan va kasbiy madaniyatning rivojlanishi, jamiyatning turli sohalarida hizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarni yetishtirish, ziyolilar va ziyolilikni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Kommunikativ madaniyatni anglab yetish el-yurtimizning tabiiy boyliklarga egalik qilish, o‘zining qudrati, salohiyati, aqlu zakovatiga tayanib, davlatchiligimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimizning poydevorini qurish, kasbiy ongimiz va fikrimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash imkonini beradi. O‘quv jarayoni va kasbiy faoliyatda kommunikativ madaniyatni shakllantirish - bu har bir talabaning ichki kasbiy, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtirish, Vatan ravniqi, yurt tinchligi, halq farovonligi yo‘lida xizmat qilish, O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e’tiqodi, urf-odat va an’analarini hurmat qilish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish, ma’rifatli, bilimli, madaniyatli, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash demakdir.

Inson zoti boshqa jonzotlardan uchta xususiyati bilan farq qiladi. Insonga aql, nutq va qalb berilgan. Boshqa jonli mavjudodlarda bu ne’matlar yo‘q. Shu bois, ularda yolg‘on, aldov begona. Biz insonlar esa ko‘pgina hollarda hamisha o‘zimizni haq, boshqalarni nohaq hisoblaymiz. Natijada nutqimizda bir-birimizni aldaymiz va aldanamiz. Albatta, aldayotgan odam o‘z manfaatini ko‘zlab aldaydi, aldanayotgan odam esa suhbatdoshiga ishonib o‘sal bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda nima qilish kerak? Suhbatdoshni zimdan kuzatayotgan odamni aldash qiyin. Agar o‘ta

sinchkovlik bilan boqsangiz, nutqning samimiy yoki yolgʻonligini aniqlashingiz mumkin. Bu birinchi galda koʻz, yuz va qoʻl harakatlariga qarab aniqlanadi. Boshqaruvda nutq va muloqot jarayonida yolgʻonni oʻrganish juda muhim. Ayniqsa, harbiy va maxfiy uchrashuvlarda, biznes bilan bogʻliq muloqotlarda, tergov va surishtiruv ishlarida haqiqatni bilish va aniqlashda oʻsha soha xodimlaridan oʻta sinchkovlik talab etiladi, buning uchun oʻsha masʼul shaxslarda sezish, koʻrish, kuzatuvchanlik rivojlangan boʻlishi kerak. Tergovchi, biznesmen, shifokor, pedagog va psixologlar oʻzlaridagi sezgirlikni oshirish maqsadida hamsuhbatlarini tanlagan joyning yorugʻroq joyiga oʻtqazib oʻzi qorongʻuroq (soyaroq) joyda oʻtirmogʻi lozim. Ana oʻshanda suhbatdoshi yuzidagi rang oʻzgarishi-yu, yuz mushaklaridagi harakatni aniqroq kuzatishi va tahlil qilishi mumkin. Qiziq, baʼzi odamlar hayot tajribasi, bilim darajasi ortib borgan sayin, aniqrogʻi odam turli vaziyatlarni oʻtagan boʻlsa, koʻplab muloqotlarda ishtirok etishiga qarab yolgʻon gapirish tajribasi ham ortib borarkan.

Yolgʻon nutq soʻzlash borasida sanʼatkorlar, savdogarlar ogʻir jismoniy mehnat kishilariga qaraganda ustasi farang boʻladi. Chunki ular da soʻz boyligi koʻp. Shuningdek, kirakash haydovchilar, sartaroshlar, bozorchilar doimiy ravishda tashqi shakllar va maʼnaviyatdagi holatlarni oʻzlariga singdirib olishga (oʻzlari uchun ibratli hisoblangan jihatlarni) harakat qiladilar.

Suhbatdoshining yolgʻon yoki rost gapirayotganini aniqlashda kasb nuqtai nazaridan tergovchilar, shifokorlar, pedagoglar ancha sezgir boʻlishlari lozim. Bu kasbdagi shaxslarning koʻplari ongli ravishda suhbatdoshlarini aldashga mohir boʻladilar. Mohir yolgʻonchilar gapirayotganda suhbatdoshining ongini oʻz nutqlari bilan egallab, oʻzlariga ogʻdirib oladilar. Ayniqsa, nutqini shakar va sharob soʻzlar bilan muloyim tarzda uqtirib, suhbatdosh hissiyotlarini egallashadi²¹. Erkaklarga nisbatan ayollarning yolgʻon ishlatishini aniqlash qiyinroq kechadi. Zimdan kuzatilsa,

²¹ Boʻriyev O.B. Anʼanaviy uy qurish bilan bogʻliq rasm-rusumlar. Oʻzbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005

erkaklarning koʻz va yuzlaridagi oʻzgarishlar yolgʻon ishlatayotganini sezdirib qoʻyadi. Bu holat ayol zotida murakkabroq kechadi. Ayollar yoshlikdan yuz ifodasi (mimika) va mushaklar parvarishiga etiborliroq boʻlib, koʻzguga erkaklarga nisbatan koʻproq murojat qiladilar. Erkaklar yolgʻon gapirganlarida koʻzlarini olib qochadilar. Ayollar esa suhbatdoshining koʻziga tik qarab aldashni eplaydilar. Erkaklarning aldayotganini atrofdagilar sezib qolsa, u koʻpincha asabiylashib gapini isbotlashga harakat qilishi mumkin. Ayollar esa, odatda oʻzini bemorlikka solish bilan vaziyatni yumshatishga intiladi. Yolgʻon gapirgan erkakning yuzi darhol qizarib ketsa, ayollar yuzida biroz qizillik zohir boʻlishi mumkin. Oʻz navbatida ayollarni aldash (ular mayda-chuydalarga koʻproq eʼtibor berganlari uchun) erkaklarni aldashdan koʻra qiyinroqdir.

Ruhshunos olimlar yolgʻondan koʻzlangan maqsadni ikki turga boʻlib oʻrganadilar:

Shaxsiy maqsadlar uchun (oʻz moddiy maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish uchun, siyosiy va iqtisodiy yutuqlarga erishish uchun, oʻzi haqidagi tushunchalarni ijobiylashtirish uchun, qoʻrqitish uchun, maqtanish uchun) ishlatadilar.

Suhbatdosh manfaatlari uchun (bemor sogʻayib ketishini istab, shaxsning emotsional holatini saqlash va suhbatdosh muammolarini yechishga yoʻnaltirilgan) yolgʻonlarni ishlatadilar.

Yolgʻon gapirayotganda inson oʻzini noqulay his etadi va shu sababli koʻz qorachigʻi torayib, koʻz oqining rangi oʻzgaradi. Bu holatni diqqat bilan kuzatgan odam anglaydi. Shu boisdan firibgarlar, qimorbozlar koʻzidagi oʻzgarishni bekitish maqsadida qora koʻzoynakdan foydalanadi.

Har bir shaxsning yuzidan uning ichki tuygʻularini aniqlash mumkin. Masalan, koʻz va yuzdagi harakatlarni kuzataylik.

Qoʻrquv, uyat, hijolatda koʻzning beixtiyor oʻzgarishi kuzatiladi. Mabodo suhbatdoshingiz oʻz yolgʻonlariga sizni ishontirsa, uning koʻz qorachiq-lari biroz kengayadi.

Suhbatdoshingiz o'z nutqidagi yolg'onning oshkor bo'lishidan qo'rqa ko'zlarini pirpiratadi. Sizni aldayotgan shaxs o'zini aybdor his etsa, ko'zini olib qochadi yoki nigohini pastga yo'naltiradi. Suhbatdoshingiz jahlini yoki uyalganini syezdirmaslikka harakat qilsa, uning yuzi qizaradi. Agar suhbatdoshingiz o'zidagi qo'rquvni yoki aybdorligini his etsa, uning yuzi oqaradi. Suhbatdoshning hayajonlanishi, qo'rquvi va uyalish jarayonida qo'l va bo'yin tomirlarining urishi tezlashadi. Suhbatdoshning hijolat chekishi va hayajonlanishidan nafas olishida o'zgarish sodir bo'lib, surunkali yutinish sodir bo'ladi.

O'z nutqidagi yolg'onning oshkor bo'lishidan hadiksiragan odamning og'zi quriqshib, lablarini yalash holati kuzatiladi.

Yolg'onning ichki hayajonlanishida qo'l panjalarida, yuzining biror qismida qaltirash sodir bo'ladi.

Suhbatdoshingiz yolg'on nutq ishlatayotgan bo'lsa, qo'l va oyoq uchlarida ixtiyorsih harakat ko'payadi, qo'l va oyoq panjalarining birlashtirilishi, qo'li bilan tanasining ma'lum qismini berkitish holati seziladi.

Kiyimidan, badanidan ko'zga ko'pam tashlanmaydigan mayda narsalarni olib, chang-chunglarni qoqib turish ham yolg'on, asossiz nutqdan dalolat.

O'tirganda joylasha olmaslik, so'zlayotgan nutqi bilan harakatlarning bir-biriga mos kelmaslik holati ham suhbatdoshingizning yolg'on so'zlayotganidan darak beradi.

Umuman olganda, yuzimiz va ko'zimiz ichki tuyg'ularimizni aks ettirish va bekitish bilan uzluksiz band bo'ladi, ya'ni, yuz va ko'z har bir shaxs ichki kechinmalarining oynasi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy olimlarining kuzatishlaricha, xayirli va ezgu keyainmalar odamning yuzini ichdan nurlantiradi. Yovuz va yolg'on fikrlar esa insonning yuzini nursizlantiradi.

Xitoy faylasuflarining fikriga ko'ra, yuz va ko'zdan ichki hislarni o'qish san'atini qismlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi. Peshona, qosh, qosh-ko'z, burun, lab-og'iz, lab va jag' mushaklari harakatlanadi. Lekin, ko'z, qosh va peshona

atrofidagi mushaklar harakati sezilmaydi. Soʻzlovchining nutqi yuz, qoʻl harakatlariga mos boʻlmasa, unda chuqur ichki ruhiy holat boʻlib, nutqidagi ishonchsizlikni namoyon etadi. Soʻzlovchining nutqi va ruhiy holatini chap va oʻng miya yarim sharlari boshqaradi. YAʼni, soʻzlovchining nutqini chap miya yarim sharlari boshqarsa, uning ruhiy holatini oʻng miya yarim sharlari boshqaradi. Oʻng miya odam vujudining chap tarafidagi aʼzolarini, chap miya esa oʻng tarafda joylashgan aʼzolarini boshqaradi. Odam zoʻrma-zoʻraki kulganda, yuzining oʻng tarafida oʻzgarish sodir boʻladi. Rostakam kulganida esa yuz, koʻz, jagʻ, labdagi barcha mushaklar harakatga keladi. Bu uning ich-ichidan kulganini bildiradi²².

Rostakam kulgi odamga salomatlik baxsh etadi. Bunday holat yosh goʻdaklarda yorqin koʻzga tashlanadi, va uni kuzatib turgan inson ham beixtiyor ich-ichdan quvonib kuladi, bu holatda yasama kulgu boʻlmaydi. YAʼni, quvonchli kulgu quvonchli kulguni keltirib chiqaradi. Har qanday inson katta davralarda nutq soʻzlayotganda, oʻng qoʻli koʻproq harakatlansa, bu inson oʻz nutqini inglovchilarga sotmoqchi xalos, biroq, oʻzi nutqidan rohatlanmaydi. Agar u jon kuydirib gapirsa, soʻzlovchining bunday nutqidan tinglovchi ham, uning oʻzi ham rohatlanadi. Yoki suhbatdoshingiz tana qismlarini qoʻli yoki oyogʻini harakatlantirib nutq soʻzlasa, sizni yoqtirmayroq gapirayotganidan darak beradi.

Biror bir azo harakatini alohida olib va undan kelib chiqadigan fikrlar boʻyicha chuqurlashib ketish kerak emas.

Masalan: agar inson burnini ishqalasa yoki qoʻli bilan ogʻzini yopib gapirsa, bu oʻziga nisbatan ishonchsizlikni bildiradi. Lekin nimada ishonchsiz ekan? Oʻzigami, yoki gapirayotgan gaplarigami? Yoki atrofdagilar uni qanday qabul qilishidi? Balki unda shamollash alomatlari bordir?!

2. Turli xil millatlarning qoʻl harakatlanishi oʻzining spetsifikaga (mazmuniga) ega:

²² Ashirov L. Oʻzbek xalqining qadimiy eʼtiqod va marosimlari. - T.: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007

“okey” qo‘lning harakati AQShda paydo bo‘lgan uning ma’nosi “hammasi o‘key!”. Fransiyada esa bu qo‘l xarakati “nol” yoki “hech narsa”. Yaponiyada - pullar, O‘rta yer dengizi davlatlarida esa bu qo‘l harakatidan foydalangan erkakning gemoseksualligidan dalolat beradi.

Inson harakatlarning ma’no mohiyati xususida fikrlayotganda davr va makonni ham unutmasligi kerak.

Inson tana harakatlarining ma’nolarining belgilari:

- Kaftlarning ochiqligi -haqgo‘ylik, ochiq tabiatlilik, hamkorlik qilish istagi, do‘stona munosabat.

- Qo‘lning yuzlarga tegib turishi -o‘ylash, hayol surish, suhbatdan zerikish, jur‘atsizlik.

- Boshni yonga egilishi -suhbatdoshning so‘zlariga qiziqishni bildiradi.

- Ko‘zini qisgan holatda qarashi -masalaning yechimini topish, izlanish.

- Ko‘zoynakni o‘ynatish. Keragi bo‘lmasa ham bu ishlarni qilish -ko‘zoynakni sekin yechish va oynalarini artish -fikir yuritishdan chekinish, vaqtni olish.

- Ixtiyorsiz predmetlarni o‘ynatish. Biron bir predmet uchini tishlash. Ko‘zoynak ruchkasini, ruchka yoki qalamning uchini tishlash - qo‘shimcha ma’lumot kerakligini bildiradi.

- Ko‘zlari yumilgan holatda ikki ko‘z qorasini qo‘l bilan siqib turish - chuqur o‘yga tolish, xayolga cho‘mish, aqliy toliqish.

- Burnini ushlab, uni qashlab, stulni uyoq bu yoqqa qimirlatib o‘tirish, yonga qayilish -ikkilanish, ishonchsizlik.

- Quloq orqasini, yoki oldini qashlash, ko‘zni qashlash suhbatdoshga beradigan savolni o‘ylash.

- Kaft ochiq, tepaga qaragan holatda so‘rashish -so‘ralayotgan iltimosning natijasi tezroq hal bo‘lishiga ishora va suhbatdoshdan mavqei darajasining pastligini ko‘rsatdi.

- Kaft ochiq, pastga qaragan holatda bo'lsa, suhbatdoshiga nisbatan ustunlik hissi borligiga ishora.

- Kaft ochiq vertikal holatda so'rashish tenglik, do'stlik belgisi.

- Qo'l berib so'rashganda qo'lning vertikal holatda tikka bo'lsa, tenglik belgisi.

- Qo'l berib so'rashganda kaft yuqoriga qaragan holat -ochiqlik, rozilik, istash.

- Ikki qo'l bilan siqib so'rashish -samiymiylik, do'stonalik, ishonch.

- Oyoq uchi qiziquvchanlik belgisi. O'zining yo'nalishi bilan kimga qiziqishi yoki kimni yoqimli deb bilishini ko'rsatadi.

- Oyoqlar orasini keng ochib turish:

- Turgan holatda oyoqoralar keng ochilganda -o'ziga ishonuvchanlik, jahldorlik, ehtiroslilik.

- Harakatlarga tayyorgarligi, harakatchan.

- O'tirgan holatda oyoqlar orasi keng ochilganda:

- a) o'ziga ishonish, ichki hotirjamlik;

- b) ehtiroslilikini ko'rsatish.

Biron bir shaxsga baho berilayotganda dastlab uning tashqi ko'rinishiga va hatti-harakatlariga qarab munosabat bildiriladi. Bu o'sha shaxsga nisbatat ovozsiz tashqaridan berilgan baho. Bu holat bilan odamni bilish qiyin. Psixologlarning fikriga ko'ra insondagi hatti-harakatlar "ochiq" va "yopiq" yoki "berk" harakatlarga bo'linadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, insonning muloqot jarayonidagi qo'l harakatining ochiq holatdaligi suhbatdoshiga nisbatan samiymiylik, ochiqlik, hurmat va ijobiy munosabatni belgilaydi. Xalqimizda qadimdan shunday bir naql yuradi. Doyalik qilgan momolarimiz chaqaloqning "qo'li ochiq tug'ildi", "ochiq ko'ngil" bo'ladi deb, agar chaqaloqning qo'llari yopiq musht bo'lsa "qaysar, o'ziga pishiq" bo'ladi deb baholashgan. Ochiq ko'ngil yoki niyati buzuk odamlarni gaplashayotgan oraliq masofa bilan ham belgilash mumkinligini psixolog olimlar quyidagicha takidlaydilar.

1. Suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa 15-40 sm bo'lsa, ishonchsizlik, tajovvuzkorlik hamda intimkayfiyatdan darak berib, "bejo turish" hisoblanadi.

2. Agar suhbatdoshlar oralig'i 70-80 sm bo'lsa, bu holatni do'stona oraliq deyish mumkin, ya'ni suhbatdoshlarning o'zaro ijobiy munosabatdalligidan darak beradi.

3. Suhbatdoshlar oralig'i 120-150 sm bo'lsa, bu hurmat oralig'i hisoblanib, ular bir-birlarini hurmat qilishlaridan nishonadir.

4. Agar suhbatdoshingiz gaprish jarayonida sizga bir necha santimetrga yaqinlashsa, so'ng aytmoqchi bo'lgan so'zlarini aytib tanasini biroz ortga tortsa, hushyor bo'ling, u sizga ishonchsiz va yolg'on so'zlarni aytgan bo'ladi. Suhbat chog'ida oraliqni nazorat qilish yuqoridagi kabi holatlarni anglashda katta yordam beradi²³.

Ta'kidlash joizki, g'oyaviy muxoliflarimiz eng avvalo diniy e'tiqodni o'zgartirish ishlarini ta'sir doirasiga olingan shaxsning turmush tarzini tubdan o'zgartirishdan boshlashga intiladilar. Turmush tarzi o'zgargan inson esa, yangi boshlanayotgan hayotda mustaqil harakatlana olmaydi. Unga doimiy rahnamo, moddiy-ma'naviy tayanch zarur bo'lib qoladi. Shu boisdan ham, turli xil sekta va oqimlarga bilib-bilmay aralashib kolgan yoshlarga bir qarashda qiziqarli, jozibador bo'lib tuyuluvchi faoliyatlar, kasb-korlar, mashg'ulotlar taklif etiladi. Natijada, ko'p yillar mobaynida o'rganib kolgan odatiy hayot yo'lini yo'qotgan yoshlar yangi yo'lda arosatda qolib, mafkuraviy homiysining ma'naviy qo'liga aylanadi.

Ma'naviy yetuk, o'z fikriga va dunyo qarshiga ega, madaniyatli shaxslar ongida ma'naviy bo'shliq bo'lmaydi va ular har qanday tahdidlarga qarshi tura oladilar. Kommunikativ madaniyat orqali qaysi davlatda qanday voqea-hodisalar bo'layotgani haqida bevosita ma'lumotga ega bo'ladilar va o'zlaridagi notiqlik mahorati orqali adashgan vatandoshlarini to'g'ri yo'lga qaytara oladilar.

²³ www.google.uz

Xulosa

O'zbekiston mustaqillikni qo'lgakiritgan dastlabki kunlardayoq ijtimoiy hayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xalqning badiiy havaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolargajiddiy e'tibor berildi.

Insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa, madaniyat va xolidamolishmarkazlari, mahallaguzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarning imkoniyati katta. O'quv yurtlari asosan, yoshlarga bilim, ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish bilan bir qatorda ularni ma'naviy, ahloqiy, ruhiy jihatlaridan oziqlantirib tarbiya beradi. Demak, insonlar ma'naviy barqarorligini yo'lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb yetishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniy-ma'rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir.

«Madaniy – ma'rifiy faoliyat», avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat va aholi damolish markazi, madaniyat va istiroxat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasalar bu g'oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi xisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhimrol o'ynaydi. Ularni hartomonlama rivojlantirish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli xordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Yoshavlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boyberish hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy ta'lim –tarbiya muassasalarining va yo'nalishlarini belgilaganda respublikamizdagi hozirgi taraqqiyot jarayoni va undan kelibchiqadigan ehtiyojlarni xususiyatlari hisobga olinmoqda.

Hozirgi vaqtda madaniy-ma'rifiy muassasalarning yangi muhim vazifasi mehnatkashlarning madaniy damolishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko'nglini hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud bo'lgan turli an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning bo'sh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda Ijtimoiy-madaniy faoliyat ko'lami kengayishi va taraqqiy etishi yurtimiz aholisining turmush tarzini yaxshilashning yana bir muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO'YXATI

Rasmiy manbaalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kostitusiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -T.: 1997.
4. Yuksak bilimli intilktual rivojlangan avlodni tarbiyalash. Mamlkatni baraqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. –T.: 2012. 16-17 fevral.
5. Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 11 dekabr

Prezident I.A.Karimov asarlari.

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.:, 2008.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -T.:, 1994.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.:, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.:, 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.

Darslik va o'quv qo'llanmalar.

7. Abdurahimov T. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari. - T.:, 1997.
8. Abduraxmonov A. Ulug'bek akademiyasi. -T.:, 1993.
9. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning masalasi. - T.: Fan, 1992.
10. «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. -Toshkent.: Urganch. 2001.

11. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1994.
12. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. -T.: Universitet, 2007.
13. Ashirov L. “Avesto”dan meros marosimlar. -T.: Meros, 2001.
14. Ashirov L. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. -T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
15. Ashirov A., Ahmadjonov SH. Etnologiya. -T., 2007.
16. Ahmedov V. O‘zbek ulusi. -T.: A Qodiriy nom. Xalq merosi nashr., 1992.
17. A.Erkayev. Ma’naviyat - millat nishoni. -T.: Ma’naviyat, 1997;
18. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. -T.: Choipon 1995.
19. Bo‘riyev O., Xoliqov D. Turkona an‘ana va udumlar - millat ko‘rki. - T.,1998.
20. Bo‘riyev O.B. An‘anaviy uy qurish bilan bog‘liq rasm-rusumlar. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005.
21. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -T., 1990.
22. Vatan madaniyati tarixi. - T., 1995.
23. Jabborov f. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: O‘qituvchi. 2003.
24. Kalonov K. O‘zbekistonda o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi dinamikasi tahlilida obro‘ning roli. (Sots. f.n. dissertatsiyasi) -T.: O‘zMU, 2000. -24
25. Bekmurodov M. Demokratik jamiyatda oila Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent.: 2003. №4 (24). -b. 30.
26. Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma’naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003. - 77 b.
27. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent.: O‘zdavnashr, 1951. - 250 b.
28. M. Bekmurodov “O‘zbek mentaliteti” –T.: 2011 yil.

29 Behbudiy M. Sagʻirlar haqinda. Oyina (1914-1915 yy). – Toshkent.: Akademiya, 2001. - 130 b.

30 Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. - 140 b.

31 Giddens E. SotsiologiY. – Toshkent.: Sharq, 2002. - 848 b.

32 Griffin K. Sotsialnaya politika i ekonomicheskiye preobrazovaniya v Uzbekistane. PROOON. 1995. - 180 s.

Internet saytlari.

www.google.uz

www.ziyonet.uz